

*Yaxshimuratova Sevara Rustam qizi*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*To'rtko'l fakulteti assistent o'qituvchisi*  
*+998906604244*  
*yaxshimuratovasevar@gmail.com*

## IQTISODIYOT FANLARINI O'QITISHDA HAMKORLIKDA O'QITISH TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun hozirgi raqamli ta'lim sharoitlarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining samaradorligi o'rganiladi. Amaliy mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlarni yechish kabi metodlarni birlashtirgan holda, hamkorlikda o'qitish talabalarning jamoaviy ish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot hamkorlik usullarining o'quv jarayonidagi qo'llanilishi va natijalarini baholab, ushbu texnologiyalarni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy ta'lim, hamkorlikda o'qitish, faol o'qitish, raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, o'qitish texnologiyalari.

**Абстракт:** В данной статье рассматривается эффективность технологий кооперативного обучения в современных условиях цифрового образования студентов-экономистов. Сочетая такие методы, как практические упражнения и решение проблем, совместное обучение развивает у учащихся навыки командной работы и критического мышления. В исследовании оцениваются использование и результаты совместных методов в образовательном процессе и вносятся предложения по дальнейшему совершенствованию этих технологий.

**Ключевые слова:** экономическое образование, кооперативное обучение, активное обучение, цифровые технологии, онлайн-платформы, технологии обучения.

**Abstract:** This article examines the effectiveness of cooperative learning technologies in the current digital educational conditions for economics students. By combining methods such as hands-on exercises and problem solving, cooperative learning develops students' teamwork and critical thinking skills. The study evaluates the use and results of collaborative methods in the educational process and makes suggestions for further improvement of these technologies.

**Keywords:** Economic education, cooperative learning, active learning, digital technologies, online platforms, learning technologies.

Hozirgi globallashtirilgan iqtisodiyot sharoitida jamoaviy fikrlash, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega mutaxassislar talab etilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun bunday ko'nikmalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni shakllantirishda faqat an'anaviy ma'ruzalar yetarli bo'lmaydi. Shu sababli, ta'lim jarayoniga hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini joriy qilish zamonaviy ta'lim talablariga javob beradi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan an'anaviy va innovatsion metodlarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning bilim olish motivatsiyasini oshiradi[1]. Hamkorlikda o'qitish talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlab, guruhviy ish, muammolarni birgalikda hal qilish va samarali muloqot qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining o'quv natijalariga ta'sirini tahlil qilish va bu texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni ilgari suradi.

Ta'lim jarayonida hamkorlikni rivojlantirish – bu o'quvchilarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadigan muhim omildir. Yangi texnologiyalar yordamida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, tajriba almashishlari va ma'lumotlarni baham ko'rishlari yanada samarali bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining asosiy turlari, ularning afzalliklari va amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining asosiy va eng asosiy bo'lgan ba'zi bir turlari bilan tanishib chiqamiz. Bulardan eng zamonaviy hisoblangani bu bulutli texnologiyalar hisoblanadi. Bular hozirgi raqamlashtirilgan ta'lim jarayonlari uchun ayni muddao hisoblanadi. Bulutli platformalar iqtisodiyot fanlarini o'qitishda quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

**Google Classroom:** Iqtisodiyot fanlarida dars materiallarini tarqatish, topshiriqlarni berish va baholash uchun qulay. Masalan, o'quvchilarga iqtisodiy tahlil misollarini, maqolalar va statistik ma'lumotlarni tarqatish mumkin.

**Microsoft Teams:** Real vaqt rejimida guruh muhokamalari va seminarlarni tashkil qilish imkoniyatini beradi. O'quvchilar iqtisodiy muammolarni guruh bo'lib tahlil qilishlari mumkin.

**Moodle:** Iqtisodiyot fanlarida kurs materiallarini boshqarish, forumlar ochish va testlarni o'tkazish uchun keng qo'llaniladi. O'quvchilarning iqtisodiy nazariyalarni amaliyot bilan bog'lashlariga yordam beradi.

Keyingi hamkorlikda o'qitish texnologiya bu onlayn hamkorlik vositalari hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar juda qulay va bu usullar ham raqamlashtirilgan ta'lim uchun juda qulay hisoblanadi. Onlayn hamkorlik vositalari iqtisodiyot fanlarida o'quvchilarning faol ishtirokini oshiradi. Biz onlayn vositalarimizni eng keng tarqalgan va eng qulay bo'lganlari bilan tanishib chiqamiz.

**Zoom:** Virtual darslar, seminarlar va iqtisodiy tahlilning real vaqt rejimida o'tkazilishiga yordam beradi. Masalan, iqtisodiy siyosat yoki bozor tahlilini muhokama qilish uchun foydalanish mumkin.

**Google Meet:** Onlayn uchrashuvlar va muhokamalar uchun qulay vosita. O'quvchilar bilan iqtisodiy holatlar va iqtisodiy modellarni muhokama qilishda samarali.

**Microsoft Skype:** O'quvchilarga iqtisodiy muammolar bo'yicha individual maslahatlar va guruh muhokamalari o'tkazishda yordam beradi. Ushbu onlayn hamkorlik vositalari orqali talabalar va o'qituvchilar har qanday sharoitda va har qanday davrda kontak o'rnatishi mumkin bo'ladi, bular ayniqsa imkoniyati cheklangan talabalar uchun ham juda mos tushadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari guruh bo'lib ishlash samaradorligini oshiradi va iqtisodiyot fanlarida muammolarni hal qilishda jamoaviy yondashuvni rivojlantiradi[2].

Keyingi hamkorlik vositalarimiz ham raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan innovatsion hisoblangan interaktiv o'yin platformalari hisoblanadi. Interaktiv platformalar iqtisodiyot fanlarini o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Ushbu platformadan foydalanish o'quvchilarning e'tiborini o'ziga jalb qiladi hamda mantiqiy fikrlar va tezlik darajalarini oshirishga xizmat qiladi. Quyida eng ko'p tarqalgan va foydalanish uchun oson va tushunarli bo'lgan o'quv platformalari keltirilgan.

**Kahoot:** Viktorinalar va testlar yaratish orqali iqtisodiy nazariyalar va tushunchalarni mustahkamlash. Masalan, iqtisodiy siyosat, bozor strukturalari yoki iqtisodiy o'sish haqida viktorina o'tkazish mumkin.

**Quizlet:** Flash-kartalar va testlar yordamida iqtisodiy atamalar va qoidalarni o'rganish. O'quvchilar iqtisodiy terminologiyani o'zlashtirishda yordam beradi.

**Padlet:** Virtual doskalar yaratish va iqtisodiy muammolarni baham ko'rish. Masalan, iqtisodiy tahlil natijalarini birgalikda muhokama qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Iqtisodiyot fanlarini o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bir qancha afzalliklar olib keladi:

birinchidan, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari interaktiv darslar va simulyatsiyalar orqali iqtisodiyot fanlarida o'quvchilarning faol ishtirokini oshiradi. Masalan, **Kahoot** yoki **Quizlet** kabi platformalarda viktorinalar va testlar o'tkazish o'quvchilarning iqtisodiy nazariyalar va atamalarni qiziqarli tarzda o'zlashtirishlariga yordam beradi. Simulyatsiyalar yordamida iqtisodiy tahlil qilish yoki

bozor sharoitlarini real vaqt rejimida ko'rish o'quvchilarni amaliy tajriba bilan tanishtiradi. Bundan tashqari **Padlet** yoki **Moodle Forums** kabi vositalar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini, tadqiqot natijalarini va iqtisodiy tahlillarini baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu interaktiv muloqot jarayonlari o'quvchilarning iqtisodiy tushunchalarni yanada chuqurroq anglashlariga yordam beradi.

ikkinchidan, **Microsoft Teams** va **Zoom** kabi onlayn hamkorlik vositalari iqtisodiyot fanlarida guruh ishlarini samarali tashkil qilish uchun imkoniyatlar yaratadi. Masalan, guruh bo'lib iqtisodiy siyosatlarni muhokama qilish, iqtisodiy tahlil loyihalarini amalga oshirish yoki seminarlar o'tkazish o'quvchilarning birgalikdagi ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. **Microsoft Teams** va **Zoom** kabi onlayn hamkorlik vositalari iqtisodiyot fanlarida guruh ishlarini samarali tashkil qilish uchun imkoniyatlar yaratadi. Masalan, guruh bo'lib iqtisodiy siyosatlarni muhokama qilish, iqtisodiy tahlil loyihalarini amalga oshirish yoki seminarlar o'tkazish o'quvchilarning birgalikdagi ishlash qobiliyatini rivojlantiradi;

uchinchidan, Onlayn platformalar yordamida o'quvchilarga individual o'rganish tajribalarini yaratish mumkin. **Khan Academy** yoki **Coursera** kabi resurslar iqtisodiyot fanlarida shaxsiylashtirilgan o'quv materiallarini taqdim etadi, bu o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda o'rganishni osonlashtiradi. O'qituvchilar onlayn platformalar orqali o'quvchilarga tez va samarali feedback berishlari mumkin. **Google Classroom** yoki **Moodle** kabi platformalar o'qituvchilarga o'quvchilarning ishlanmalarini baholash, tavsiyalar berish va yordam ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim platformalari orqali iqtisodiyot fanlarida individual yondashuvni amalga oshirish o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshiradi[3]. Bu o'quvchilarning o'rganish jarayonida qo'shimcha yordam olishlarini ta'minlaydi.

Iqtisodiyot fanlarini o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyalari samarali ta'lim jarayonlarini tashkil qilish va o'quvchilarning o'rganish tajribasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari, o'quvchilarning iqtisodiy tushunchalarni yanada qiziqarli va samarali o'zlashtirishlariga yordam beradi. Viktorinalar, testlar va simulyatsiyalar orqali o'quvchilarning faol ishtiroki oshadi, bu esa ularning bilimlarini yanada chuqurlashtirishga yordam beradi. Guruh ishlarida va iqtisodiy tahlil loyihalarida birgalikda ishlash orqali o'quvchilar jamoa sifatida muammolarni hal qilish, iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirish va natijalarni taqdim etishda ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Bulutli va onlayn platformalar o'quvchilarga har qanday vaqt va joydan dars materiallariga kirish imkoniyatini beradi. Bu masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi va o'quvchilarga darslarni o'z sur'atida o'rganish imkonini yaratadi, shuningdek, uzluksiz ta'lim jarayonini ta'minlaydi. Umuman olganda, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari iqtisodiyot fanlarida ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchilarning motivatsiyasini va ishtirokini kuchaytiradi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarni ko'proq interaktiv va individual yondashuvlar orqali o'rganishga undaydi, bu esa iqtisodiy nazariyalar va amaliyotlarni yanada samarali o'rganishni ta'minlaydi. Shuningdek, ular o'qituvchilarga darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil qilishda yordam beradi, bu orqali ta'lim jarayonining umumiy sifatini oshiradi.

Yakuniy natijada, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari iqtisodiyot fanlari o'qituvchilari va o'quvchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va ta'lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va individuallashtirilgan qiladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Djalilov.F. Ta'limda Innovatsion Texnologiyalarni Qo'llash. 2019
2. Rakhmatov.A. Guruh Ishlari va Hamkorlikda O'qitish: Tahlil va Metodologiya 2020
3. Sharipov.M. Shaxsiylashtirilgan Ta'lim: Nazariya va Amaliyot. 2021
4. Usmonov.R. Innovatsion Ta'lim Yondashuvlari va Metodologiyalari. 2018.
5. Harrison.C., & Howard.K. (2021). Educational Technology in the Classroom: A Modern Approach.
6. Alavi.M. Oliy ta'limda aralash ta'lim: Yondashuv, tamoyillar va tavsiyalar. 2017